



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи</i>	



BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA ILMIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mustafayeva Nilufar Ulashovna

Termiz davlat universiteti doktoranti (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bloom taksonomiyasi asosida o'quvchilarning ilmiy kompetentligini takomillashtirish yo'llari hamda bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, taksonomiya darajalari orqali ilmiy fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bloom taksonomiyasi, ilmiy kompetentlik, kognitiv darajalar, tahlil, sintez, baholash, metodika.

Abstract: This article analyzes the ways of improving students' scientific competence based on Bloom's taxonomy and the specific features of this process. It also highlights the possibilities of developing scientific thinking, analytical skills and problem-solving abilities through the taxonomy levels.

Key words: Bloom's taxonomy, scientific competence, cognitive levels, analysis, synthesis, evaluation, methodology.

Аннотация: В статье анализируются способы развития научной компетентности студентов на основе таксономии Блума и особенности данного процесса. Также рассматриваются возможности формирования научного мышления, навыков анализа и решения проблем через уровни таксономии.

Ключевые слова: таксономия Блума, научная компетентность, когнитивные уровни, анализ, синтез, оценка, методология.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevoriga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ilm-fan sohasidagi yangiliklar hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash ehtiyoji o'qituvchilardan ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning faqat bilim egallashlari emas, balki chuqur fikrlash, tahlil qilish, yaratish va baholash kabi yuqori darajadagi aqliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu esa ta'limni natijaga yo'naltirilgan kompetensiyalar asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ilmiy kompetentlik – bu nafaqat bilimga ega bo'lish, balki uni ongli ravishda qo'llash, ilmiy tafakkur orqali muammolarni hal etish, dalillangan fikr yuritish va mustaqil tadqiqot olib borish kabi qobiliyatlarni qamrab oladigan keng tushunchadir. Bunday ko'nikmalarni o'quvchilarda bosqichma-bosqich shakllantirish uchun tizimli metodik yondashuv zarur bo'lib, buning eng samarali vositalaridan biri sifatida Bloom taksonomiyasidan foydalanish mumkin.

Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya modeli ta'limning kognitiv sohasini bosqichli tarzda tartiblaydi hamda har bir daraja orqali o'quvchining fikrlash qobiliyatini chuqurlashtirishni ko'zda tutadi. Mazkur model asosida dars mazmunini rejalashtirish, topshiriqlarni tanlash va baholash mezonlarini belgilash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning ilmiy kompetentligini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim jarayonini takomillashtirish, ayniqsa o'quvchilarning fikrlash faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga doir tadqiqotlar o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab keng rivoj topgan. Bu borada amerikalik pedagog-psixolog Benjamin Bloomning 1956–yilda taklif qilgan kognitiv taksonomiya modeli¹ ta'lim nazariyasida tub burilish yasagan. U o'quvchilarning bilish faoliyatini olti darajaga ajratish orqali har bir bosqichda maqsadli o'qitish imkoniyatini yaratdi [Bloom, 1956].

Blumning bu modeli keyinchalik Anderson va Krathwohl² (2001–yil) tomonidan qayta ishlab chiqilib, amaliy ta'limda qo'llash uchun yanada qulay shaklga keltirildi. Ushbu takomillashgan modelda kognitiv faoliyat dinamik ko'nikmalarni rivojlantirishga, ayniqsa yuqori darajadagi fikrlash – tahlil, sintez va baholash jarayonlariga alohida urg'u berilgan.

M.Q. Shodmonov³ (2015–yil) o'z tadqiqotida ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishda Bloom taksonomiyasining ahamiyatini tahlil qilib, aynan yuqori darajali bilimlar asosida shakllanadigan kompetensiyalar kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyat uchun zamin bo'lishini ta'kidlaydi.

G.A. Ziyoyeva⁴ (2020–yil) esa o'quvchilarda ilmiy kompetentlikni shakllantirishda interfaol uslublar va muammoli ta'limning o'rnini tahlil qilib, Bloom taksonomiyasi asosida tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va muammoni hal etishga undashini qayd etadi.

Yaqinda chop etilgan UNESCO (2023–yil) hisobotida⁵ ta'lim sifatini baholashda kompetensiyalar asosida fikrlovchi shaxslarni tayyorlash eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, bunda Bloom taksonomiyasi global tavsiyalarning asosiy qismi sifatida keltirilgan.

Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda – O'zbekiston Respublikasi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiya hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilmiy kompetentlikni shakllantirishda metakognitiv yondashuvlarning roli va interfaol metodlarning samaradorligi haqida ko'plab maqolalar e'lon qilingan. Ushbu maqolalarda taksonomiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki tanqidiy va ijodiy fikrlashini ham kuchaytirishi ta'kidlangan.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Bloom taksonomiyasi nafaqat nazariy asosga ega, balki amaliy metodika sifatida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy kompetentlikni shakllantirish uchun samarali vositadir. Uning asosida tuzilgan topshiriqlar hamda o'qitish usullari o'quvchilarning chuqur tahlil qilish, ilmiy xulosa chiqarish va tadqiqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu ishda ilmiy kompetentlikni shakllantirish jarayonini Bloom taksonomiyasi asosida o'rganishga qaratildi. Ma'lumotlarni olishda nazariy va amaliy manbalardan foydalanildi. Avvalo, pedagogik va psixologik adabiyotlar, milliy hamda xalqaro ilmiy maqolalar tahlil qilindi, mavjud nazariy yondashuvlar o'rganildi. Shuningdek, ta'lim sohasida olib borilgan ilg'or tajribalar, amaliy tavsiyalar va statistik ma'lumotlar qo'llanildi. O'qituvchilarning dars jarayonida taksonomiya bosqichlarini qo'llash uslublari kuzatildi va ularning samaradorligi baholandi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, umumlashtirish va tahliliy yondashuvlar orqali qayta ishlanib, asosiy natijalar chiqarildi. Tadqiqot davomida kontent-tahlil usuli yordamida adabiyotlarda keltirilgan ilmiy xulosalar sintez qilindi. Shuningdek, kuzatish va tahlil natijalari orqali o'quvchilarda ilmiy kompetentlikning bosqichma-bosqich shakllanish imkoniyatlari o'rganildi. Metodologik yondashuv natijalarini izchil tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarda chuqur bilim olish bilan birga, ilmiy asosda fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va dalillangan xulosa chiqarish kabi kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirishda turli pedagogik yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ular orasida Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv taksonomiya modeli alohida o'rin tutadi. Mazkur model o'quvchilarning

- 1 Bloom, Benjamin S., ed. *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain*. Longmans, Green, 1956.
- 2 Anderson, Lorin W., and David R. Krathwohl, eds. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. Longman, 2001.
- 3 Shodmonov, M. Q. "Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari." *Pedagogik mahorat*, vol. 4, 2015, pp. 22–28.
- 4 Ziyoyeva, G. A. "Ilmiy kompetentlikni shakllantirishda interfaol metodlarning o'ri." *Ta'lim va rivojlanish jarayoni*, vol. 2, no. 1, 2020, pp. 35–40.
- 5 UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. UNESCO Publishing, 2023.



bilish faoliyatini tartibga soluvchi olti darajali tizim bo'lib, har bir bosqichda fikrlash darajasi chuqurlashib boradi. Aynan shu xususiyat ilmiy kompetentlikni shakllantirish uchun samarali zamin yaratadi.

Blum taksonomiyasi o'quv jarayonini bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash kabi ketma-ket kognitiv bosqichlarga ajratadi. Ushbu bosqichlar orqali o'quvchilar ilmiy bilimlarni egallaydi, ularni real vaziyatlarda qo'llay oladi, murakkab muammolarni tahlil qiladi va mustaqil ilmiy xulosalar chiqaradi. Masalan, boshlang'ich bosqichda o'quvchi ilmiy atamalarni yodlaydi va asosiy tushunchalarni eslab qoladi. Keyingi bosqichlarda esa bu bilimlarni izohlash, tajribada qo'llash, tahlil qilish, yangi g'oyalarni yaratish hamda fikrini asoslab baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada o'quvchi shunchaki bilim oluvchidan faol ishtirokchi va ilmiy tafakkur egasiga aylanadi.

Ilmiy kompetentlikni shakllantirish, ayniqsa, o'quvchilarni mustaqil tadqiqotga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'nikma nafaqat maktab ta'limida, balki oliy ta'limda ham dolzarb hisoblanadi. Shu bois, taksonomiyaning yuqori bosqichlari – tahlil, sintez va baholash – ilmiy kompetentlikni rivojlantirishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi murakkab hodisalarni qismlarga ajratadi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi, o'z gipotezalarini ilgari suradi va mustaqil xulosa chiqarishga intiladi. Bu jarayon uni kela-jakda tadqiqot olib boruvchi, ilmiy yangiliklar yarata oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Ta'lim jarayonida ushbu modelni samarali qo'llash uchun o'qituvchi metodik jihatdan tayyor bo'lishi zarur. Dars rejalari, topshiriqlar, savollar va baholash mezonlari taksonomiya bosqichlariga mos tarzda tuzilganda, o'quvchi har bir bosqichda zarur kompetensiyalarni egallaydi. Masalan, "Fotosintez" mavzusini o'rganishda avval jarayon haqida bilim beriladi, keyin uni izohlash, tajriba asosida tasdiqlash, olingan natijalarni tahlil qilish, yangi vaziyatda qo'llash va yakunda umumlashtirish bosqichlari izchil qo'llaniladi. Natijada o'quvchining ilmiy kompetentligi shakllanadi hamda uni mustahkamlovchi amaliy ko'nikmalar rivojlanadi.

Amaliyotda Bloom taksonomiyasiga asoslangan metodlar – muammoli o'qitish, interfaol usullar, loyiha va tadqiqot metodlari, INSERT va fishbone texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Bu metodlar o'quvchini chuqur o'ylashga, mustaqil qaror qabul qilishga va tajriba asosida fikr yuritishga undaydi. Ayniqsa, sinfdagi bahs-munozaralar, ilmiy maqola yozish, eksperiment loyihalash kabi topshiriqlar o'quvchilarda tanqidiy tafakkur hamda ilmiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shu tariqa, Bloom taksonomiyasi nafaqat bilimni baholash vositasi, balki o'quvchini yuqori darajadagi aqliy faoliyatga yo'naltiruvchi samarali model sifatida ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Uning asosida tuzilgan o'quv faoliyati o'quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish, izlanishga yo'naltirish va zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetent shaxsni tayyorlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.


O'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ilmiy kompetentligini shakllantirishda Bloom taksonomiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim mazmuni va metodik yondashuvlar yuqori samaradorlikka ega. Aynan shu model asosida tuzilgan dars rejalari, bosqichli topshiriqlar va interfaol metodlar o'quvchilarning chuqur fikrlashini, tahliliy yondashuvini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Taksonomiyaning dastlabki bosqichlari – bilish, tushunish va qo'llash – o'quvchilarda ilmiy bilimlar asosini shakllantiradi. Ushbu bosqichlar orqali o'quvchi atamalarni o'zlashtiradi, ilmiy matnlarni tushunadi, faktlarni eslab qoladi va amaliyotga tadbqiq eta boshlaydi. Yuqori bosqichlar – tahlil, sintez va baholash – esa uni ilmiy tafakkurga olib kiradi. Bu bosqichlarda o'quvchi mavjud bilimlar asosida tahliliy fikr yuritadi, yangi g'oyalar yaratadi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi va o'z fikrini asoslay oladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, o'qituvchilar Bloom taksonomiyasining barcha bosqichlarini puxta o'zlashtirib, ularga mos metodlarni tanlash orqali o'quvchilarning ilmiy kompetentligini izchil va tizimli shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar. Jumladan, muammoli vaziyat yaratish, tajriba o'tkazish, loyiha asosida ishlash, interfaol metodlardan foydalanish va bahs-munozaralar tashkil etish kabi yondashuvlar o'quvchini "biluvchi" emas, balki "o'ylovchi va yaratuvchi" shaxs sifatida shakllantiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Bloom taksonomiyasi nafaqat o'quv jarayonini rejalashtirishda, balki ta'lim sifatini baholashda ham kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ilmiy kompetentlik kabi murakkab ko'nikmalarni rivojlantirishda bu model asosida yondashish o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil izlanish va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu modelni keng tatbiq etish orqali o'quvchilarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularda global raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan ilmiy salohiyatni oshirish mumkin. Muhimi, o'qituvchi har bir bosqichning maqsadini aniq tushunib, unga mos metodik vositalarni tanlay olsa, natijada o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarda ilmiy bilim va tahlil ko'nikmalaridan foydalana oladigan, kompetent shaxs sifatida shakllanadi.



1-grafik: Bloom taksonomiyasi bosqichlarining ilmiy kompetentlikka ta'siri

Grafikdan ko'rinib turibdiki, bosqichlar ko'tarilgan sari, ayniqsa "Tahlil", "Sintez" va "Baholash" bosqichlarida ilmiy kompetentlikka ta'sir darajasi sezilarli oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillar va muhokamalar asosida xulosa qilish mumkinki, Bloom taksonomiyasi zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ilmiy kompetentligini tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, taksonomiyaning yuqori bosqichlari – tahlil, sintez va baholash – o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, tadqiqotga moyil hamda ilmiy asosda qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy kompetentlikni takomillashtirishda o'qituvchining yondashuvi, dars mazmunining puxta rejalashtirilishi va metodlarning to'g'ri tanlanishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Taksonomiya asosida tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarni bilim olishdan tashqari, bu bilimlarni real hayotga tatbiq etish, tahlil qilish, fikr yuritish va asoslashga yo'naltiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning ilmiy tafakkurini kengaytirib, ularni zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan kompetent shaxslarga aylantiradi.

Shu bois, Bloom taksonomiyasini nafaqat baholash vositasi, balki ta'limni samarali tashkil etish va ilmiy kompetentlikni shakllantirishning strategik vositasi sifatida keng joriy etish muhimdir. Ushbu model asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchini biluvchi emas, balki fikrlovchi, tahlil qiluvchi va yaratishga qodir shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bloom, Benjamin S., ed. *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain*. Longmans, Green, 1956.
2. Anderson, Lorin W., and David R. Krathwohl, eds. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. Longman, 2001.
3. Shodmonov, M. Q. "Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari." *Pedagogik mahorat*, vol. 4, 2015, pp. 22–28.
4. Ziyoyeva, G. A. "Ilmiy kompetentlikni shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni." *Ta'lim va rivojlanish jarayoni*, vol. 2, no. 1, 2020, pp. 35–40.
5. UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. UNESCO Publishing, 2023.
6. Mahmudov, A. B. *Zamonaviy ta'limda pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: O'qituvchi, 2021.
7. Mardonova, D. "O'quvchilarda tahliliy fikrlashni shakllantirishda Bloom taksonomiyasining amaliy ahamiyati." *Innovation ta'lim*, vol. 1, no. 3, 2022, pp. 48–53.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.